

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI**

ESHIMBETOVA DARMON URAZBAYEVNA

**KORPORATIV MUNOSABATLARDAN KELIB CHIQADIGAN
NIZOLARNI HAL QILISH MASALALARI**

**12.00.04 - Fuqarolik protsessual huquqi. Iqtisodiy protsessual huquqi.
Hakamlik jarayoni va mediatsiya**

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

UDK: 346:347.918:347.191(575.1)

Doktorlik (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации (PhD)

Content of the abstract of the doctoral (PhD) dissertation

Eshimbetova Darmon Urazbaevna

Korporativ munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilish
masalalari 3

Эшимбетова Дармон Уразбаевна

Вопросы разрешения споров, вытекающих из корпоративных
отношений 19

Eshimbetova Darmon Urazbaevna

Issues of resolving disputes arising from corporate relations 35

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 40

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI**

ESHIMBETOVA DARMON URAZBAYEVNA

**KORPORATIV MUNOSABATLARDAN KELIB CHIQADIGAN
NIZOLARNI HAL QILISH MASALALARI**

**12.00.04 - Fuqarolik protsessual huquqi. Iqtisodiy protsessual huquqi.
Hakamlik jarayoni va mediatsiya**

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Yu484 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.sudyalaroliymaktabi.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djoldasova Saxipjamal Djalg‘asovna
yuridik fanlar doktori (DSs), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Mamasiddiqov Muzaffarjon Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor

Olimova Kamila Kamalitdinovna
yuridik fanlar nomzodi

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi
Yuristlar malakasini oshirish markazi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar Oliy Kengashi huzuridagi Sudyalar Oliy maktabi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 10-iyun kuni soat 14:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100097, Toshkent sh., Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (99855) 501-01-89; faks: (99855) 501-01-89; e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz).

Dissertatsiya (PhD) bilan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar Oliy Kengashi huzuridagi Sudyalar Oliy maktabining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (21-24-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100097, Toshkent sh., Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (99855) 501-01-89; faks: (99855) 501-01-89; e-mail: sudyalaroliymaktabi@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 24-may kuni tarqatildi.

(2024-yil 24-may 11-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.I. Nasriev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

D.R.Artikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

F.X. Otaxonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda mojarolar, xavfsizlik, hokimiyat institutlari zaifligi va odil sudlovga erishish cheklanganligi barqaror rivojlanish uchun jiddiy tahdid bo‘lib qolmoqda¹. Qonun ustuvorligi va taraqqiyot bir-biri bilan uzviy bog‘langan va bir-birini mustahkamlab turuvchi bo‘lib, milliy va xalqaro darajada barqaror rivojlanishni taqozo etadi². Bu borada odil sudlovga erishishni ta‘minlashda, avvalo protsessual huquq nazariyasi va amaliyotida ayrim nizolar, jumladan korporativ munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilishning alohida jihatlarini tadqiq etish, yangi nizolar turlarini aniqlash va ularni hal qilishning tezkor, qulay protsessual tartib-qoidalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda iqtisodiy nizolarni, jumladan korporativ munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilishda sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishiga erishish hamda qonun ustuvorligini ta‘minlash yuzasidan sud jarayonida taraflarning tortishuvi tamoyilini to‘laqonli ta‘minlashga qaratilgan normalarni yanada takomillashtirish, iqtisodiy sud ish yurituviga axborot texnologiyalarini keng joriy qilish, sud hujjatlari va taraflarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan protsessual institutlarni tadqiq etish va yangi innovatsion ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Respublikamizda islohotlarning dolzarb bo‘g‘ini bo‘lgan qonun ustuvorligini ta‘minlash, sud-huquq tizimini isloh etish, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida strategik qadamlar tashlanmoqda. Xususan, sudni hokimiyatning alohida mustaqil tarmog‘i sifatida inson huquq va erkinliklarini muhofaza qiluvchi va ishonchli himoya qiluvchi institutga aylantirish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. “Yangi O‘zbekiston – yangi sud” tamoyili doirasida aholining odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish sud-huquq tizimini isloh qilishni jadallashtirishni, sohaga ilg‘or xalqaro standartlarni joriy etishni talab etmoqda. Ushbu dasturiy natijalarga erishishni ta‘minlash uchun sud ishlarini yuritish tartib-tamoyillarini, jumladan iqtisodiy sudlarda ko‘riladigan korporativ nizolarni hal qilish masalalarini tadqiq etish dolzarblik kasb etmoqda. Statistik ma‘lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda iqtisodiy sudlarda korporativ huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar yildan yilga ortib bormoqda. Jumladan, ko‘rilgan ishlar soni 2020-yilda 415 ta, 2021-yilda 492 ta, 2022-yilda 554 ta bo‘lsa, 2023-yilning birinchi yarmining o‘zida bu ko‘rsatkich 235 tani tashkil etgan³. Bundan tashqari, respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2023-yil 1-aprel holatiga 483,6 mingtaga yetib, 2019-yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 137,9 foizni tashkil etdi. Bundan 297 404 tasi (70,7%) mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar, 47 378 tasi (11,3%) oilaviy korxonalar, 616 tasi (0,1%) aksiyadorlik jamiyatlari, 5 465 tasi (1,3%) boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxslar⁴ hisoblanadi. Bu esa, mazkur yuridik shaxslar (korporatsiyalar) va ishtirokchilarining korporativ huquqlarini amalga oshirish va odil sudlovga erishish

¹ <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/peace-justice/>

² <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/peace-justice/>

³ Dissertatsiyaga 3-ilova.

⁴ <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-2>

imkoniyatlarini yana-da kengaytirishni, ular ishtirokidagi korporativ nizolarning sudga taalluqliligi va sudlovga tegishliligi, sudda ko‘rish va hal etish, shuningdek, sudgacha hamda muqobil hal qilishga oid qonunchilikni chuqur ilmiy-nazariy tahlil qilish, mavjud qonun normalari va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023), O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi (2018), Fuqarolik protsessual kodeksi (2018), “Sudlar to‘g‘risida”gi (2021) Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–4850-sonli, 2018-yil 13-iyuldagi “Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5482-sonli, 2020-yil 24-iyuldagi “Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–6034-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli, 2023-yil 16-yanvardagi “Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–12-sonli farmonlari hamda mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlanishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi asosida bajarildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz iqtisodiy protsessual huquqida korporativ munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilish masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Biroq, tadqiqot mavzusining u yoki bu jihatlari mamlakatimiz olimlaridan Sh.Sh.Shoraxmetov, M.M.Mamasiddiqov, H.R.Rahmonqulov, S.S.Gulyamov, F.X.Otaxonov, Sh.R.Karaxodjaeva, S.B.Xolbayev, I.I.Nasriyev, J.X.Yuldashev, B.R.Topildiyev, V.Mahkamov, S.Dj.Djoldasova, X.B.Abduraxmanova va boshqa huquqshunos olimlar tomonidan muayyan darajada o‘rganilgan. Xususan, K.S.Avezov korporativ nizolarning iqtisodiy sudga taalluqliligi masalalari, M.N.Saidov mas‘uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarining huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish masalalari, O‘.P.Xolmirzayev jamiyatning majburiyatlari yuzasidan nazorat qiluvchi shaxslarning javobgarligi bilan bog‘liq fuqarolik-huquqiy munosabatlar tizimi yuzasidan maxsus tadqiqot olib borgan.

Xorijiy mamlakatlarda korporativ munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilishning nazariy-huquqiy jihatlari Presser Stephen B., Ratner, E.Klunzinger, U.Bernam, MDH mamlakatlarida V.A.Laptev, D.V.Lomakin, Ye.I.Vyalix, A.A.Danelyan, P.V.Stepanov, I.S.Shitkina, D.N. Severin, Ye.Yu.Pashkova va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan⁵.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

⁵ Asarlar ro‘yxati foydalanilgan adabiyotlar qismida berilgan.

Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilib, “Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirishning asosiy yo‘nalishlari” mavzusidagi fundamental loyihasi (2021–2023-yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi korporativ munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudda ko‘rish va hal qilishga doir qonunchilikni takomillashtirishga oid ilmiy-nazariy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

korporativ nizolarni hal qilishda korporativ munosabatlarning xususiyatlari va huquqiy tabiatini tahlil qilish;

korporativ nizolar tushunchasi, mohiyati va turlarini o‘rganish, “korporativ nizo” tushunchasini bir xilda qo‘llash va qonunchilikda mustahkamlash zaruratini asoslash;

korporativ nizolarning sudga taalluqliligi va sudlovga tegishlilikini tadqiq qilish;

korporativ munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudda ko‘rishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish;

korporativ nizolarni hal qilishda dalillar va isbotlash vositalaridan foydalanish masalalarini tahlil qilish;

korporativ nizolarni sudgacha hamda muqobil hal qilishga oid qonunchilikni qo‘llashning ayrim jihatlarini o‘rganish va qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqish;

korporativ nizolarni sudda ko‘rish tartiblarini takomillashtirish masalalarini xorij tajribasi misolida o‘rganish va qonunchilikka takliflar ishlab chiqish;

korporativ nizolarni hal qilishning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti iqtisodiy sudlari tomonidan korporativ munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni ko‘rib chiqish va hal qilish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar tizimidir.

Tadqiqotning predmetini korporativ munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilishni huquqiy tartibga soluvchi protsessual qonunchilik, huquqni qo‘llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, amaliyoti va ilmiy-nazariy qarashlar hamda huquqiy kategoriyalar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy tahlil, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, formal-yuridik o‘rganish, induksiya va deduksiya, sotsiologik so‘rov, statistik ma’lumotlar tahlili, sud amaliyotini o‘rganish kabi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda ko‘rinadi:

talab sudga taalluqlilik qoidalarini buzgan holda iqtisodiy sudga taqdim etilgan taqdirda, da’vo arizasi (ariza) taalluqliligiga ko‘ra fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga yoki ma’muriy sudga ko‘rib chiqish uchun o‘tkazish zarurligi, agar da’vo arizasi (ariza) sudga taalluqlilik qoidalarini buzgan holda ish yuritishga qabul qilinganligi ishni ko‘rib chiqish jarayonida aniqlansa, iqtisodiy sud ish materiallarini sudga taalluqliligiga ko‘ra fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga yoki ma’muriy sudga ko‘rib chiqish uchun o‘tkazish va iqtisodiy sud ishini yuritishni tugatish to‘g‘risida ajrim chiqarishi asoslantirilgan;

iqtisodiy suddan taalluqliligiga ko‘ra boshqa sudga o‘tkazilgan da’vo arizasi (ariza), ish materiallari sudlar tizimida arizalarni sudga taalluqliligidan qat’i nazar,

qabul qilish va vakolatli sudga yuborish hamda muayyan ish doirasida barcha huquqiy oqibatlarni hal qilishni ta'minlash zarurati sababli o'ziga o'tkazilgan sud tomonidan qabul qilib olinishi asoslantirilgan;

sudga taalluqliligiga ko'ra fuqarolik ishlari bo'yicha suddan yoki ma'muriy suddan da'vo arizasi (ariza) yoki ish materiallari kelib tushganda sudya da'vo arizasi (ariza) IPKning 149, 150 va 151-moddalarida ko'rsatilgan talablarga muvofiq emasligini aniqlagach, ariza (shikoyat) sudga kelib tushgan kundan e'tiboran besh kundan kechiktirmay da'vogarni (arizachini) kamchiliklarni bartaraf etish zarurligi to'g'risida xabardor qilishi va unga buning uchun o'n kundan oshmaydigan muddat berishi asoslantirilgan;

“korporativ nizo” atamasini bir xilda qo'llash ahamiyati asoslantirilgan;

ishtirokchining jamiyatdan chiqishi haqidagi ishlarni sudda ko'rishda ustav fondidagi ulushni oluvchi foydasiga ulushdan voz kechilganligini tasdiqlovchi hujjatni talab qilib olinishi, shuningdek, jamiyatning ustav fondidagi ulushi ochiq kimoshdi savdosi orqali sotilganligi bilan bog'liq ishlarni ko'rishda kimoshdi savdosi natijalari haqidagi bayonnoma talab qilib olinishi zarurligi asoslantirilgan;

jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilish qarori bitim hisoblanmasligi sababli umumiy yig'ilish qarorini haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq ishlarni ko'rishda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining bitimlarga oid normalarni qo'llashga yo'l qo'yilmasligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Korporativ munosabatlar”, “korporatsiya” va “korporativ nizo” tushunchalariga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga korporatsiyaga oid yangi norma kiritish zaruriyati asoslantirilgan;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksiga “korporativ yuridik shaxs (korporatsiya)” haqidagi normalarni kiritish zarurligi, korporatsiya ishtirokchisi maqomini yo'qotgan fuqarolar yoki yuridik shaxslar ishtirokidagi nizolarga doir ishlarning iqtisodiy sudga taalluqliligi asoslantirilgan;

aksiya egasi yoki egasining qonuniy huquqiy vorisi yoxud merosxo'ri tomonidan dividendni talab qilib olishga nisbatan ham mulk huquqining muddatsizligi qoidalari qo'llanilishi lozimligi asoslantirilgan; iqtisodiy protsessual qonunchilikka “da'vo qilish huquqi” institutini keng joriy etish, ayrim korporativ nizolar yuzasidan sudlarga murojaat qilish huquqiga ega da'vogarlar ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksiga kiritish zarurligi asoslantirilgan;

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonunini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ishlab chiqilgan (dissertatsiya ishiga ilova qilingan).

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari ishda qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi va belgilangan talablar asosida havola qilinganligi, xorijiy tajriba va milliy qonunchilik o'zaro tahlil qilinganligi, huquqni qo'llash amaliyoti tahlili asosida nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar ilgari surilganligi, tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan xulosalar 92 nafar sudyalardan o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar, 2020–2023-yilning birinchi yarmidagi statistik ma'lumotlar, shu bilan birga dissertatsiya ishining dastlabki

natijalari amaliyotga joriy qilinganligi va bu tegishli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy, xorijiy nashrlarda e'lon qilinganligi tadqiqot xulosalarining ishonchliligini namoyon etadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi hamda Plenum qarorlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar tayyorlangan va ulardan qonun ijodkorligi jarayonida foydalanilgan.

Dissertatsiyada bayon etilgan qoidalar, chiqarilgan xulosalar, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan ushbu muammoga doir ilmiy tadqiqotlar o'tkazishda, iqtisodiy protsessual huquqi, iqtisodiy ishlar bo'yicha protsessual hujjatlar modullarini ishlab chiqish va ularni yurisprudensiyaga ixtisoslashgan oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida, o'rganilgan muammoga oid o'quv adabiyotlarini tayyorlashda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Korporativ munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilish masalalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

talab sudga taalluqlilik qoidalarini buzgan holda iqtisodiy sudga taqdim etilgan taqdirda, da'vo arizasi (ariza) taalluqliligiga ko'ra fuqarolik ishlari bo'yicha sudga yoki ma'muriy sudga ko'rib chiqish uchun o'tkazish zarurligi, agar da'vo arizasi (ariza) sudga taalluqlilik qoidalarini buzgan holda ish yuritishga qabul qilinganligi ishni ko'rib chiqish jarayonida aniqlansa, iqtisodiy sud ish materiallarini sudga taalluqliligiga ko'ra fuqarolik ishlari bo'yicha sudga yoki ma'muriy sudga ko'rib chiqish uchun o'tkazish va iqtisodiy sud ishini yuritishni tugatish to'g'risida ajrim chiqarishiga oid takliflar O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 26-apreldagi O'RQ-833-sonli "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasining 2-bandi bilan O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 31¹-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2023-yil 26-iyuldagi 04/2-10/2831-son dalolatnomasi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 27-iyuldagi 08/567-23-son dalolatnomasi). Mazkur taklif sudlar tizimida arizalarni sudga taalluqliligidan qat'i nazar, qabul qilish va vakolatli sudga yuborish hamda muayyan ish doirasida barcha huquqiy oqibatlarni hal qilishni ta'minlash tizimini joriy etishga xizmat qilgan;

iqtisodiy suddan taalluqliligiga ko'ra boshqa sudga o'tkazilgan da'vo arizasi (ariza), ish materiallari o'ziga o'tkazilgan sud tomonidan qabul qilib olinishiga oid takliflar O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 26-apreldagi O'RQ-833-sonli "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasining 2-bandi bilan O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 31¹-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2023-yil 26-

iyuldagi 04/2-10/2831-son dalolatnomasi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 27-iyuldagi 08/567-23-son dalolatnomasi). Mazkur taklif sudlar tizimida arizalarni sudga taalluqliligidan qat’i nazar, qabul qilish va vakolatli sudga yuborish hamda muayyan ish doirasida barcha huquqiy oqibatlarni hal qilishni ta’minlash tizimini joriy etishga xizmat qilgan;

sudga taalluqliligiga ko‘ra fuqarolik ishlari bo‘yicha suddan yoki ma’muriy suddan da’vo arizasi (ariza) yoki ish materiallari kelib tushganda sudya da’vo arizasi (ariza) IPKning 149, 150 va 151-moddalarida ko‘rsatilgan talablarga muvofiq emasligini aniqlagach, ariza (shikoyat) sudga kelib tushgan kundan e’tiboran besh kundan kechiktirmay da’vogarni (arizachini) kamchiliklarni bartaraf etish zarurligi to‘g‘risida xabardor qilishi va unga buning uchun o‘n kundan oshmaydigan muddat berishiga oid takliflar O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 26-apreldagi O‘RQ-833-sonli “Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni 5-moddasining 4-bandini bilan O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 152-moddasini yangi tahrirda ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasining 2023-yil 26-iyuldagi 04/2-10/2831-son dalolatnomasi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 27-iyuldagi 08/567-23-son dalolatnomasi). Mazkur taklif sudlar tizimida arizalarni sudga taalluqliligidan qat’i nazar, qabul qilish va vakolatli sudga yuborish hamda muayyan ish doirasida barcha huquqiy oqibatlarni hal qilishni ta’minlash tizimini joriy etishga xizmat qilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2014-yil 20-iyundagi “Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 262-sonli Qarori muqaddimasidagi “ishtirokchilar o‘rtasida, ishtirokchilar bilan xo‘jalik shirkati o‘rtasida, shu jumladan aksiyadorlar o‘rtasida, aksiyador bilan aksiyadorlik jamiyati o‘rtasida xo‘jalik shirkati faoliyatidan kelib chiqadigan nizolarni” degan so‘zlarni “korporativ nizolarni” degan so‘zlar bilan almashtirishga oid taklifi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi 6-sonli qarorining 8-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 5-iyuldagi 08/500-23-son dalolatnomasi). Mazkur taklif korporativ munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudga ko‘rishda “korporativ nizo” huquqiy atamasini bir xilda qo‘llashga xizmat qilgan;

ishtirokchining jamiyatdan chiqishi haqidagi ishlarni sudga ko‘rishda ustav fondidagi ulushni oluvchi foydasiga ulushdan voz kechilganligini tasdiqlovchi hujjatni talab qilib olish, shuningdek, jamiyatning ustav fondidagi ulushni ochiq kimoshdi savdosi orqali sotilganligi bilan bog‘liq ishlarni ko‘rishda kimoshdi savdosi natijalari haqidagi bayonnoma talab qilib olinishi zarurligiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi 6-sonli qarorining 8-bandini bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining “Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 2014-yil 20-iyundagi 262-sonli qarori 4-bandining beshinchi-oltinchi xatboshilarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 5-iyuldagi

08/500-23-son dalolatnomasi). Mazkur taklif ishtirokchining jamiyatdan chiqishi haqidagi ishlarni sudda ko'rishda zarur dalillarni aniqlashga xizmat qilgan;

jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilish qarori bitim hisoblanmasligi sababli umumiy yig'ilish qarorini haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq ishlarni ko'rishda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining bitimlarga oid normalarni qo'llashga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi 6-sonli qarorining 8-bandi bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining "Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to'g'risida"gi 2014-yil 20-iyundagi 262-sonli qarori 14.2-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 5-iyuldagi 08/500-23-son dalolatnomasi). Mazkur taklif jamiyat boshqaruv organlari qarorlarini haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ishlarni hal qilishda moddiy huquq normalarini to'g'ri qo'llash orqali qonuniy va asoslantirilgan qarorlar qabul qilinishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida sinovdan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan OAK nashrlarida 7 ta maqola (5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya asosiy matnning hajmi 132 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish (doktorlik dissertatsiya annotatsiyasi)** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchiligi hamda ularning ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinganligi, aprobatyasi, natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **"Korporativ munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning umumiy tavsifi"** deb nomlangan birinchi bobida korporativ nizolarni hal qilishda korporativ munosabatlarning xususiyatlari va huquqiy tabiati, iqtisodiy sudlar tomonidan hal etiladigan nizolar tizimida korporativ nizolar tushunchasi, mohiyati va turlari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Dissertant huquqshunos olimlarning xulosalari, huquqni qo'llash amaliyoti tahlili, respondentlar o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalari va xorijiy davlatlarning qonunchilik tajribasi asosida iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni ko'rish va hal qilishda, jumladan korporativ nizo ishtirokchilari doirasini hamda nizoning sudlovga taalluqliligini belgilashda "korporativ munosabatlar" va unga bog'liq

“korporatsiya”, “korporativ nizo” tushunchalarining ilmiy-nazariy ta’rifini aniqlash, shakllantirish hamda qonunchilikda mustahkamlash zarurati haqida asoslantirilgan xulosaga keladi.

“Korporativ munosabatlar” tushunchasi yuzasidan polemikaga xulosa yasab, “Korporativ munosabatlar – bu korporativ tashkilotlarda ishtirok etish yoki uni boshqarish bilan bog‘liq munosabatlardir”, degan mualliflik ta’rifini ishlab chiqadi. Korporatsiya, yuridik shaxslar, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar, aksiyadorlik jamiyatlari tushunchalari haqidagi bir qator olimlar (H.R.Rahmonqulov, S.S.Gulyamov, F.X.Otaxonov, S.B.Xolbayev, I.I.Nasriyev, M.N.Saidov, V.A.Laptev, D.V.Lomakin, Ye.I.Vyalix, A.A.Danelyan, P.V.Stepanov, I.S.Shitkina, D.N.Severin, Ye.Yu.Pashkova)ning yondashuvlarini tahlil qilish asosida “Korporatsiya – bu ikki yoki undan ortiq shaxs tomonidan tashkil etilgan, ustav fondi ta’sischi(ishtirokchi)larining ulush(pay)laridan tashkil topgan, ta’sischi(ishtirokchi)lari tomonidan qonunchilikka muvofiq o‘z ustavida belgilangan tartibda kollegial oliy boshqaruv organi shakllantiriladigan, tijorat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korporativ tashkilotdir”, degan mualliflik ta’rifini ilgari suradi.

Muallif “korporativ nizo” tushunchasi yuzasidan huquqshunos olimlar jumladan, D.N.Severin, Ye.Yu.Pashkova, V.A.Laptev, A.A.Danelyan, Ye.I.Vyalix, D.V.Lomakin, Ye.A.Dorojinskayalarning nuqtai nazarlarini tahlil qilgan holda, “Korporativ nizo – bu korporatsiya va (yoki) korporatsiya ishtirokchilarining huquq va manfaatlariga bog‘liq holda yuzaga kelgan, nizo taraflaridan kamida bittasi korporatsiya va (yoki) korporatsiya ishtirokchisi (ishtirokchilari) bo‘lgan hamda korporativ munosabat ishtirokchilarining manfaatlari zidligi asosida kelib chiqqan huquqiy qarama-qarshilikdir”, degan mualliflik ta’rifini ishlab chiqadi.

Dissertant ilmiy-nazariy va amaliy tahlillar asosida qayd etadiki, korporativ nizoning mohiyatini aniqlashda uning ikkita mezoni: obyekt va subyekt mezoni muhimdir. Obyekt mezoni – bu nizo ishtirokchilarining munosabatlari, huquqlari, ya’ni mulkiy va nomulkiy huquqlari va majburiyatlari bilan belgilansa, subyekt mezoni – bu nizoda ishtirok etuvchi shaxslar doirasi bilan belgilanadi, degan xulosaga keladi va korporativ nizolar o‘z mohiyatiga ko‘ra – mulkiy huquqlarni amalga oshirish va nomulkiy huquqlarni amalga oshirish bilan bog‘liq nizolarga bo‘linishini asoslantiradi.

Izlanuvchi tomonidan korporativ huquqning atama va tushunchalari huquqiy hujjatlar, huquqiy adabiyotlar, qonunchilik va amaliyotda bir xilda hamda o‘z mazmun-mohiyatiga mos ravishda belgilanishi huquqni qo‘llash amaliyotida muayyan noaniqliklar va qonunchilikdagi nomuvofiqliklarni bartaraf etib, ishlarni tez, o‘z vaqtida ko‘rib chiqish va hal etishni ta’minlashini asoslantirib, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi (bundan buyon matnda IPK deb yuritiladi)ning 30-moddasi matnidagi “yuridik shaxs” so‘zlarini “korporativ yuridik shaxs (korporatsiya)” so‘zlari bilan almashtirish taklifini ilgari suradi.

Dissertatsiyaning **“Korporativ munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudga ko‘rishning o‘ziga xos jihatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotchi tomonidan korporativ nizolarning sudga taalluqliligi va sudlovga tegishliligi

masalalari, korporativ munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sudda ko'rishning o'ziga xos xususiyatlari, nizolarni sudgacha hamda muqobil hal qilishga oid qonunchilikni qo'llashning ayrim jihatlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Dissertant korporativ nizolarning sudga taalluqliligi yuzasidan ko'plab olimlar nuqtai nazarini tahlil qilish asosida, korporativ nizolar taalluqliligini ikki xil belgiga, ya'ni predmeti (nizoli huquqiy munosabatning tabiati) va subyekti (shunday nizoli huquqiy munosabat ishtirokchisining ma'lum maqomga egaligi)ga qarab aniqlanadi, degan xulosaga keladi.

Muallif protsessual qonunchilik, ilmiy adabiyotlar, sud amaliyoti tahlillari asosida korporativ nizolar yuzasidan ish yuritishda: 1) sud buyrug'i tartibida ish yuritilishiga yo'l qo'yilmasligi; 2) soddalashtirilgan tartibda ish yuritilishiga yo'l qo'yilmasligi haqida; shu bilan birga: 1) da'voni ta'minlash choralarini qo'llashga yo'l qo'yilishi mumkinligi; 2) IPKning yarashtirish tartib-taomillarini qo'llashga yo'l qo'yilishi mumkinligi; 3) ishga nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar sifatida korporatsiya va uning barcha ishtirokchilarini jalb qilishning majburiyligi; 4) yuridik shaxs boshqaruv organlarining qarorlari ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi nizolar yuzasidan sudda javobgar sifatida jamiyatning o'zi ishtirok etishi lozimligi; 5) ishni hakamlilik sudi ish yurituviga o'tkazilishiga yo'l qo'yilishi mumkinligi haqida xulosaga keladi.

Dissertant korporativ nizolarni sudda ko'rish jarayonida ishda taraflarning huquqiy holati, ishda ishtirok etuvchi shaxslar, odil sudlovni amalga oshiruvchi shaxslar doirasini to'g'ri belgilash hamda isbotlash va dalillarning ahamiyatini sud amaliyoti asosida tahlil qiladi. Korporativ nizolarda dalillarni maqbul va ishga aloqadorligi bo'yicha baholashning ahamiyatini, muayyan nizoli ishlarni hal qilishda tegishli dalillarni talab qilib olish haqidagi xulosani asoslantiradi.

Tadqiqotchi tomonidan moddiy va protsessual qonunchilik, sud amaliyoti va huquqshunos olimlar fikrlarini tahlil qilish asosida nizoni sudgacha hal qilish (talabnoma yuborish) tartibiga rioya etilmagan va bunday tartibni qo'llash imkoniyati boy berilgan hollarda, da'vo arizasini ish yuritishga qabul qilishni rad qilish lozimligi asoslantiriladi.

Muallif tomonidan sud amaliyotida nizolarni muqobil hal qilish usullarini qo'llash jarayonini tahlil qilish asosida protsessual qonunchilikdagi ayrim huquqiy normalarni takomillashtirish zarurati asoslantirilib, sudyaga ish yuritish tiklanguniga qadar mediatsiya tartib-taomilini o'tkazish muddatini uzaytirish va ish ko'rishni boshqa kunga qoldirish vakolatini berish lozim, degan xulosaga keladi. Tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovnoma ishtirok etgan respondentlarning 68 foizi "Sud ish yuritish tiklanguniga qadar mediatsiya tartib-taomilini o'tkazish muddatini uzaytirishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishga haqli" degan normani IPKga kiritish taklifini ma'qullashgan.

Tadqiqot ishining **"Korporativ munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilishni takomillashtirishning ayrim jihatlarini"** deb nomlangan uchinchi bobida izlanuvchi tomonidan korporativ nizolarni hal qilishning xorijiy tajribasi, korporativ nizolarni hal qilishning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish kabi masalalar

ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinib, soha qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan takliflar bildiriladi.

Dissertant xorijiy davlatlar (AQSh, Angliya, Germaniya, Rossiya, Belarus) qonunchiligi tajribasini qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil etib, korporativ nizolarni hal qilish bo'yicha qonunchilik va sud amaliyotini takomillashtirishga oid takliflarni ilgari suradi.

Xususan, moddiy qonunchilikdagi ishtirokchining jamiyatdan istalgan vaqtda chiqish huquqi kafolatlarini ta'minlash yuzasidan korporativ nizolar ro'yxatiga yangi nizo turini kiritish va IPKning 30-moddasi birinchi qismini "8) ishtirokchining jamiyatdan chiqishi munosabati bilan jamiyat zimmasiga ta'sis hujjatlariga o'zgartirish kiritish majburiyatini yuklash to'g'risidagi nizolar", mazmunidagi yangi band bilan to'ldirish taklifini asoslantiradi.

Xorijiy davlatlar (Rossiya) qonunchiligi tahlili asosida ayrim toifadagi korporativ nizolarni sudda ko'rishning tezkor va ixcham tartiblarini ijobiy tajriba sifatida milliy qonunchilikka joriy qilish zaruratini asoslantirib, IPKga yangi "214¹-modda. Korporativ yuridik shaxs (korporatsiya) zimmasiga ishtirokchilarning umumiy yig'ilishini chaqirish majburiyatini yuklash to'g'risidagi ishlarni ko'rish" normasini kiritish taklifini ilgari suradi.

Dissertant korporativ nizolarni hal qilishning nazariy-huquqiy asoslarini milliy, xorijiy davlatlar qonunchiligi, sud amaliyoti tajribasi hamda olimlar fikrlarini tahlil qilish asosida protsessual qonunchilikning "da'vo qilish huquqi" instituti tartib-tamoyillarini qo'llashni kengaytirish haqidagi takliflarni ilgari suradi.

Binobarin, agar sudga da'vo arizasi bilan da'vo qilish huquqi mavjud bo'lmagan shaxs murojaat qilgan hollarda, da'vo arizasini qabul qilishni rad qilish, agar mazkur holat sudda ishni ko'rish davomida aniqlansa, ish yuritishni tugatish haqida o'z ilmiy-amaliy yondashuvlarini asosli tarzda izohlab beradi. Shu bilan birga, IPKga "212¹-modda. Korporativ nizolar yuzasidan sudga murojaat qilish huquqi" deb nomlangan yangi normani kiritish asosida to'ldirish va korporativ nizolar yuzasidan da'vo arizalari bilan sudlarga murojaat qilishga korporatsiya, korporatsiya ishtirokchisi (ishtirokchilari) va boshqa korporativ munosabat ishtirokchilari haqliligi, ayrim korporativ nizolar yuzasidan da'vo arizalari bilan sudlarga murojaat qilishga: 1) ishtirokchini jamiyatdan chiqarish talabi bilan jami ulushlari jamiyat ustav fondi (ustav kapitali)ning kamida o'n foizini tashkil etadigan jamiyat ishtirokchisi (ishtirokchilari); 2) jamiyat boshqaruv organining qarorini haqiqiy emas deb topish haqidagi nizolar yuzasidan ushbu qarorni qabul qilish bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmagan yoki bahsli qarorga qarshi ovoz bergan jamiyat ishtirokchisi (ishtirokchilari); 3) aksiyalarning hammasini yoki muayyan qismini aksiyadorlik jamiyati tomonidan qaytarib sotib olish majburiyatini yuklash haqidagi nizolar yuzasidan ovoz beruvchi aksiyaga ega bo'lgan aksiyadorlar haqliligi haqidagi xulosani asoslantiradi.

